kashligi, vijdonsizligini tasvirlab beradi. Xolmurod tufayli Sirga qizini olib boshqa yoqqa koʻchib ketishga majbur boʻladi.

A.Tajimuratovning "Sarkoplı batır" nomli qissasi Ikkinchi jahon urushining qahramoni Oʻrozboy Jumaniyozovga bagʻishlangan. Bu qissa hujjatli asar xarakteriga ega. Oʻrozboy Jumaniyozovning yoshlik hayotidan boshlab, uning Ikkinchi jahon urushi davridagi qilgan jasorati, mardligi badiiy tasvirlangan.

A.Tajimuratovning bundan boshqa povestlari bor. "Vakillar" qissasi qishloq xoʻjalik hayotiga bagʻishlangan boʻlsa, "Hal qiluvchi" qissasi chorvadorlar hayotidan soʻz yuritadi. "Ahay qishlogʻida" deb nomlangan hikoyalar toʻplamida tarixiy mavzu, kundalik hayot, XX asrning 30–50-yillaridagi ijtimoiy hayot voqealari soʻz yuritilgan. A.Tajimuratov ushbu hikoyasida Orol dengizining poetik obrazini jonlantirish vositasi bilan bera olgan. “Shaǵala shańqıldaydı. Quw sıńsıp, ǵazlardıń dizbegi toparlasqan úyrekler órden ıqqa ushıp júr. Keshe jaǵa menen arpa alısıp áwpildep atırǵan teńiz házir ǵana jańa shıqqan kúnge ayrıqsha móldir kózi menen qarap tur.” [4.8]

Xulosa. A.Tajimuratov mohir lirik shoir boʻlish bilan birga, nasriy asarlar yaratishda ham badiiy iste’dod egasi ekanligi malum. U oʻz tugʻilgan erini, Vatanini lirik asarlarida yuksak darajada pafos bilan kuylagan boʻlsa, nasriy asarlarida ham oʻsha vatanparvarlik gʻoyalari chuqur lirizm, falsafiy yondashuv bilan beriladi.

She’rlarida lirik qahramonning ichki kechinmalari, oʻylari, his-tuygʻulari aniq bir manzaraga bogʻliq holda aks etadi. A.Tojimuratovning epik asarlarida ma’lum bir vaqtda sodir boʻlayotgan voqealar, ularga odamlarning aralashuvi, inson xarakterining shakllanishi, ong sezgisining oʻsib rivojlanishi bayon etiladi. Qoraqalpoq adabiyoti tarixida epik janrning shakllarini rivojlantirishda yozuvchi A.Tajimuratovning qoʻshgan salmoqli hissasi bor. Shuningdek, epik janr shakllarining transformatsiyaga oʻtishi: hikoyaning qissaga aylanishi, ocherkning romanga oʻzgarishini muallifning "Ómir" ("Ushrasıw"), "Sarkoplı batir" ("Erlik") asarlari misolida koʻrish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Тажимуратов Ә. Айдынлар. Нөкис, “Билим”, 2020.

(2). Тажимуратов Ә. Еркинлик самалы. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1992.

(3). Тажимуратов Ә. Гүрриңлери. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1960.

(4). Тажимуратов Ә. Саркопли батыр. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1962.

(5). Тажимуратов Ә. Аҳай аўылында. Нөкис,”Қарақалпақстан”, 1984.

(6). Járimbetov Q., Genjemuratov B. Ádebiyat teoriyası. Tashkent, “Sano-standart” baspası, 2018.

(7). Поспелов Г.Н. Типология литературных родов и жанров. В книге “Вопросы методологии и поэтики”, М., изд-во МГУ, 1983.

Mavlanova Gulnigor Baxriddin qizi (Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti; mavlanova.gulnigor@bk.ru)

VIRJINIYA VULF IJODINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya. *Virjiniya Vulf Viktoriya davri adabiyotining qat’iy qoliplaridan voz kechib, inson ongi tadqiqiga e’tibor qaratish orqali XX asr adabiyotida tub burilish yasadi. U “ong oqimi” kabi ilg‘or badiiy uslublar yordamida vaqt, xotira hamda ruhiy kechinmalarning o‘zgaruvchanligini mahorat bilan tasvirladi. Yozuvchining bu kashfiyotchilikka asoslangan ijodi modernistik nasr taraqqiyotini butunlay o‘zgartirib yubordi. Ushbu maqolada shu haqida fikrlar yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Virjiniya Vulf, ong oqimi, modernism, Viktoriya davri, ichki voqelik.*

ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА ВИРЖИНИИ ВУЛЬФ

Аннотация. *Вирджиния Вулф произвела переворот в литературе XX века, отказавшись от строгих канонов викторианской эпохи и сосредоточив внимание на исследовании человеческого сознания. Используя новаторские литературные техники, в частности "поток сознания," она мастерски запечатлела текучесть времени, памяти и психологических переживаний. Новаторство писательницы полностью изменило вектор развития модернистской прозы. Данная статья посвящена осмыслению этих идей.*

Ключевые слова: *Вирджиния Вулф, поток сознания, модернизм, викторианская эпоха, внутренняя реальность.*

A STUDY OF THE WORKS OF VIRGINIA WOOLF

Annotation. *Virginia Woolf brought about a profound shift in twentieth-century literature by rejecting the rigid conventions of Victorian literature and focusing on the exploration of the human consciousness. Using pioneering literary techniques such as "stream of consciousness," she skillfully*

depicted the fluidity of time, memory, and psychological experiences. The author's innovative work completely transformed the development of modernist prose. This article will reflect upon these ideas.

Key words: *Virginia Woolf, stream of consciousness, modernism, Victorian era, inner reality.*

Kirish. "Virjiniya Vulf meni nafaqat janrlar orasida erkin harakat qila oladigan iste'dodli ijodkor sifatida, balki chuqur tarixiylik tuyg'usi, an'anaga hurmat va o'z zamonasini teran anglashi tufayli ham o'ziga jalb etgan", deydi turkiyalik ingliz adabiyoti professori Mine Ozyurt Kilich. Vulf muayyan davrda o'z erki va o'rnini aniq anglagan ayol, yozuvchi va uzoq kelajakdagi tendensiyalarni ko'ra oladigan ijodkor edi. XX asr modernizm adabiyotida o'tmishdagi fikrlarga qarshi turadigan yangi eng ko'zga ko'ringan, o'zining "ong oqimi" yo'nalishi bilan ajralib turadigan yozuvchilar unib chiqa boshladi. Marsel Prust (Marcel Proust, 1871–1922), Frants Kafka (Franz Kafka, 1883–1924), Djeyms Djoys (James Joyce, 1882–1941), Virjiniya Vulf (Virginia Woolf, 1882–1941) kabi mashhur adiblar modernizm adabiyoti klassiklari hisoblanadi. Ularning badiiy konsepsiyalari XX asr oxiriga kelib, umumyevropa adabiyoti taraqqiyotining asosiy tendentsiyasiga aylandi. Bu mohir so'z ustalari o'z ijodida asosiy urg'uni adabiyot va hayot o'rtasidagi faol o'zaro ta'sir darajasidan badiiy asarning ichki matn (konteksti)ga oid jihatlarga qaratdilar. Ya'ni ,ular ta'rifida endilikda real voqelik adabiyotga emas, balki, aksincha, adabiyot real hayotga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Voqelik endi madaniyat va adabiyot vujudga keltirgan konsepsiyalarga muvofiq o'zgarishi va rivojlanishi lozim edi [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Vulf ijodini o'rgangan ilk tadqiqotchilardan Shvetsiyalik Kerstin Elert "Portraits of Women in Selected Novels by Virginia Woolf and E.M.Forster" nomli doktorlik izlanishida Vulf hamda Forster asarlarida ayolning oilada, qarindoshlik munosabatlarida va kelajakdagi o'rinlarida harakterini ochib berishga harakat qilgan. "Virjiniya Vulf va E.M.Forster romanlarida ayollar obrazining tasvirlanishiga qiziqishim ularning rivoyachilik san'atidagi ilg'or uslubi hamda asarlaridagi ayol qahramonlarning eskicha tabiati o'rtasidagi nomuvofiqlikdan kelib chiqqan. Ularning ayollar portretlari zamiridagi ayollik ideallarining kelib chiqishini o'rganishga kirishganimda, ba'zilarining ildizi G'arb sivilizatsiyasining eng qadimiy manbalariga borib taqalishini angladim. Boshqalari esa yuz bergan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va texnikaviy o'zgarishlar bosimi ostida rivojlangan edi" deya o'z fikrlarini bayon etadi [2]. So'nggi o'n yilliklarda yozuvchi romanlarining ayrim jihatlarini o'rganishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Biroq ayni shu yerda g'ayritabiiy bir holat yuzaga keladi. Albatta, Virjiniya Vulf ijodi va poetikasining "noan'anaviyligi" hamda "originalligi" shubhasizdir. Shunday bo'lsa-da, tadqiqotchilar ko'pincha uning asarlaridagi bu kabi originallik va shakliy yangiliklarning manbasini adabiy amaliyotga bevosita aloqasi bo'lmagan qandaydir "tashqi" holatlardan izlaydilar. Boshqacha aytganda, tashqi omillar Virjiniya Vulf asarlari poetikasining ichki qonuniyatlarini izohlashda ishtirok etmoqda. Virjiniya Vulf ruhiyatining, o'zgalar bilan muloqot doirasining o'ziga xosligi, uning turli xil falsafiy hamda estetik nazariyalardan xabardorligi, zamonaviy jamiyatga bo'lgan munosabati, asarlarida ayollar masalasi va hokazo [3;893–897-b.].

Tahlil va natijalar. Virjiniya Vulf professional ziyoli o'rta tabaqaga mansub bo'lib, oilasi XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida nufuzli bo'lgan, asosan, oddiy dindorlardan iborat Yevangelist "Klaphem sektasi" guruhiga borib taqaladi. Klafamitlar, jumladan, U.Uilberfors boshchiligidagi qulchilikka qarshi ishda ishtirok etganliklari bilan mashhur edilar. Lesli Stivenning qizi sifatida Virjiniya Vulf Viktoriya davri intellektualizmining eng markaziy an'anasida tug'ilgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, Stiven Uolter E.Xouton o'zining "Viktoriya davri tafakkur tizimi" tadqiqotida eng ko'p iqtibos keltiradigan va murojaat qiladigan shaxslardan biridir. Birinchi islohotlar qonuni qabul qilingan 1832-yilda tug'ilgan Stiven o'sha davrning ko'plab xarakterli xususiyatlarini o'zida mujassam etgan: axloqiy jiddiylik, sog'lom fikr va halollik. Bu davrga xos shubha va xavotirlar unda ham bor edi [4;35-b.]. Virjiniya Vulf ijodini o'rganadigan tadqiqotchilar asosan adabiy modernizm, feministlar nazariyasi va ekotanqidga ixtisoslashgan. Bu olimlar adibaning ong oqimi texnikasi, gender masalasini chuqur tahlil qilgani hamda Blumsberi guruhi bilan aloqalarini tadqiq etadilar. Jeyn Markus: "Virjiniya Vulf va patriarxat tillari" asari bilan tanilgan, Vulfning radikal siyosati va feminizmini ilk akademik qayta baholashga asos solgan feminist olima. Anna Snayt: London Qirollik kolleji professori. Uning arxiv tadqiqotlari Vulfning ijtimoiy, siyosiy va adabiy faoliyatiga oid tushunchalarda tub burilish yasadi. Syuzan Sellers: Sent-Endryus universiteti ingliz adabiyoti professori. Vulfning ijodiy munosabatlarini (xususan, singlisi Vanessa Bell bilan munosabatlarini) tadqiq qiladi. Jeyn Goldman: "Virjiniya Vulfning feministik estetikasi" va "Virjiniya Vulfga Kembrijcha kirish" asarlari muallifi. Vulf ijodida modernizm, san'at va falsafaning o'zaro uyg'unlashuvini o'rganadi. Luiza A.DeSalvo: Vulfning bolalikdagi jarohatining biografik va psixologik oqibatlarini, xususan, "Virjiniya Vulf: Bolalikdagi zo'ravonlikning uning hayoti va ijodiga ta'siri" asarida tadqiq etgan. Tadqiqotchilar Virjiniya Vulf asarlarini uning novator modernistik nasri adabiyotning inson tafakkurini aks ettirish usullarini butunlay

o‘zgartirib yuborgani uchun ham o‘rganadilar. Yozuvchining matnlari o‘zining radikal bayon uslubidagi yangiliklari, teran feministik falsafasi hamda inson psixologiyasi, ruhiy jarohatlar va o‘zlikni chuqur tadqiq etgani bilan adabiyotshunoslikda hamon markaziy o‘rin tutadi. Vulf an’anaviy, voqeaband Viktoriya nasrini inkor etgan. U buning o‘rniga inson tafakkurining o‘tkinchi va ichki kechinmalarini aks ettiruvchi ong oqimi uslubiga asos soldi. Izlanuvchilar idrok, vaqt va xotiraning voqelikni qay darajada belgilashini anglash uchun uning “Missis Dellouey” hamda “Mayoq sari” kabi shoh asarlarini o‘rganib shu xulosaga kelishgan [5]. 1917-yil Vulf hayotida muhim bir yil bo‘lib, uning adabiy faoliyat davrini boshlab berdi. Bir necha og‘ir yillar davomida kuchli tushkunlikdan azob chekib, o‘zidan kutgan darajada yoza olmay qolgan Vulf “Times” gazetasining adabiy ilovasiga taqrizlar yozishni qayta yo‘lga qo‘ydi va hozirda uning eng muhim asarlaridan biri sanaladigan kundaligini yozishga kirishdi. 1917-yilda Vulf va uning 1912-yilda turmushga chiqqan eri Leonard “Hogarth Press” nashriyotiga asos solishadi. Ushbu nashriyot Virjiniyaning romanlarini hamda T.S.Eliot kabi boshqa mashhur zamondoshlarining asarlarini chop etgan. Vulf juftligi London adabiy muhitida yetakchi o‘rinni egallab borayotgan edi. “Hogarth Press” nashriyoti tomonidan chop etilgan ilk roman 1922-yilda nashr qilingan Vulfning “Jeykobning xonasi” asari bo‘ldi. Garchi bu kitobda muallifning o‘ziga xos uslubi va zamonaviy adabiyotga qo‘shadigan hissasi bo‘lmish texnik mahoratning ilk alomatlari ko‘rinsa-da, aksariyat tanqidchilar uning keyingi, xususan, 1920-yillarning ikkinchi yarmida yozilgan asarlarini eng yuksak ijod namunalari deb hisoblaydi. “Missis Dellouey” (1925) va “Mayoqqa tomon” (1927) romanlari Vulfning adabiy eksperimentlar va personajlar yaratishga bo‘lgan qiziqishini ochib bersa, “Oddiy o‘quvchi” (1925) to‘plamining birinchi jildiga kirgan tanqidiy esselari uning nafaqat adabiyot yaratishga, balki u haqda yozishga ham ishtiyoqi baland bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu davrda uning sermahsul ijodining yana bir yorqin qirrasi Vulfning o‘qigan ma’ruzalari asosida yozilgan “O‘ziga xos xona” (1929) asari bo‘ldi. Aynan shu ma’ruzalarda u yozuvchi bo‘lish uchun ayol kishining besh yuz funt puli va o‘ziga xos xonasi bo‘lishi kerak, degan mashhur fikrni aytgan edi [6].

XX asr adabiyoti va san’atidagi yo‘nalishlarning ko‘pchiligiga, xususan, ekspressionizm, surrealizm, “yangi roman”, “ong oqimi”, “absurd teatri”ga shaxsdagi shizofreniya, ya’ni iroda va ixtiyorni namoyon qilishning susayishi, psixika yaxlitligining parchalanib ketishi alomatlari, tushkunlik kayfiyati, ruhiy va hissiy depressiya holatlari vosita obyekti tarzida xizmat qildi [1].

“Hikoya qilish”ning asosiy uslubi sifatida Vulf qahramonlarning kechinmalarini tasvirlash uchun “Ong oqimi” texnikasidan foydalanadi, bu esa unga personajlarning ichki dunyosini ochib berish imkonini yaratadi. Robert Hamfri buni shunday ta’riflaydi: “Bu badiiy adabiyotning bir turi bo‘lib, unda asosiy urg‘u, avvalo, qahramonlarning ruhiy olamini ochib berish maqsadida ongning nutqqacha bo‘lgan bosqichini tadqiq etishga qaratiladi”. Yangi voqelikning, ya’ni, ichki voqelikning yuzaga kelishi tashqi olam tajribasini bir chiziqda tasvirlashdek an’anaviy tushunchadan keskin burilish edi. Bu yangi voqelik qahramonning turli-tuman tashqi turtkilarga, hissiy taassurotlar va xotiralarga oid munosabatida namoyon bo‘lishi kerak edi [6]. Virjiniya Vulf haqidagi ilmiy munozaralar uning modernistik rivoya usullari va feministik adabiy tanqidga qo‘shgan qo‘shaloq hissasini doimiy ravishda ta’kidlaydi. Banfild kabi tanqidchilar Vulfning, ayniqsa, ong oqimidan foydalanish kabi, rivoya shakli borasidagi tajribalarini alohida qayd etadilar; bu esa badiiy adabiyotda ichki voqelik va subyektiv tajribaning tasvirlanishini butunlay o‘zgartirib yubordi. “Mayoqqa sari” va “To‘lqinlar” kabi asarlar, ko‘pincha, ushbu yangilikning asosiy namunalari sifatida tilga olinadi[4].

Xulosa qilib shuni aytamizki, yozuvchimiz o‘z davrining yangiliklarni jamiyat to‘g‘ri qabul qila olishni va shunga harakat qilishlari uchun o‘zining asarlari hamda qahramonlari orqali yetkazmoqchi bo‘lgan. Har bir roman yoki qissasida “yangi ayol” ruhiy olamini qo‘llab-quvvatlagan. Mohiyatan, Virjiniya Vulf adabiyot hayotning murakkabligini to‘g‘ri aks ettirishi, shaklan jasoratli va ifodada qamrovli bo‘lishi kerak, deb hisoblagan. U romanning imkoniyatlarini qaytadan kashf etdi va barcha insonlar, ayniqsa, ayollar ijod qilish uchun yetarli makon va erkinlikka ega bo‘lgan dunyo uchun kurashdi. Vulfning merosi nafaqat badiiy asarlarni yozishimiz va o‘qishimizda, balki adabiyotning vazifasini anglashimizda ham o‘z aksini topgan: u shaxs va jamiyatni chuqur tadqiq etish vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). M.Xolbekov. XX asr modern adabiyoti manzaralari. Kh-davron.uz kutubxonasi.

(2). Kerstin Elert. Portraits of women in selected novels by V.Woolf and E.M.Forster. doctoral dissert. Sweden, 1979.

(3). Fayzullayeva U. (2022). Virjiniya Vulf qahramonlarida “ong oqimi”ning tasviri. Academic research in educational sciences, 3(1), p. 893–897.

(4). Dr.Soumita Mitra. Virginia Woolf: A modern feminist writer in 20th century world. International Journal of Humanities and Social Science Research www.socialsciencejournal.in ISSN: 2455-2070 Received: 14-02-2026, Accepted: 16-03-2026, Published: 31-03-2026 Volume 12, Issue 1, 2026, p. 444–446.
(5). https://www.ebsco.com/research-starters/history/virginia-woolf
(6). Stylistic Analysis of Mrs. Dalloway And To The Lighthouse. https://www.scribd.com/

Mirzaev Rustamjon Mahmudovich (Andijon davlat Texnika instituti katta o'qituvchisi, Andijon shahri, O'zbekiston Respublikasi; e-mail: mirzaevrustamjon1970@gmail.com)

CHINGIZ AYTMATOV ASARLARINI RUS TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI USLUBIY VA LINGVOMADANIY MUAMMOLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Chingiz Aytmatov asarlarining rus tilidagi matnlaridan o'zbek tiliga o'girilishi jarayonidagi asosiy tarjima muammolari tahlil qilinadi. Ikki tilning tizimli-struktur xususiyatlari, milliy-madaniy bo'yoqdor so'zlar reproduksiyasi va muallif individual uslubini saqlash masalalari qiyosiy-tipologik metod asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *badiiy tarjima, Chingiz Aytmatov, realiyalar, transformatsiya, lingvomadaniyat, uslubiy mutanosiblik, rus tili, o'zbek tili.*

СТИЛИСТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ПРОИЗВЕДЕНИЙ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА С РУССКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ

Аннотация. *В данной статье анализируются основные переводческие проблемы, возникающие в процессе перевода произведений Чингиза Айтматова с русского языка на узбекский. На основе сравнительно-типологического метода освещаются вопросы системно-структурных особенностей двух языков, репродукции национально-культурной маркированной лексики (реалий) и сохранения индивидуального авторского стиля.*

Ключевые слова: *художественный перевод, Чингиз Айтматов, реалии, трансформация, лингвокультурология, стилистическое соответствие, русский язык, узбекский язык.*

STYLISTIC AND CULTURAL LINGUISTIC PROBLEMS IN THE TRANSLATION OF CHINGIZ AITMATOV'S WORKS FROM RUSSIAN INTO UZBEK

Annotation. *This article analyzes the key translation challenges encountered in the process of rendering Chingiz Aitmatov's works from Russian into Uzbek. Utilizing a comparative-typological approach, the study explores the structural and systemic differences between the two languages, the reproduction of culture-specific lexis (realia), and the preservation of the author's individual style.*

Keywords: *literary translation, Chingiz Aitmatov, realia, transformation, cultural linguistics, stylistic correspondence, Russian language, Uzbek language.*

Kirish. Jahon adabiyoti durdonalarini milliy tilga o'girish nafaqat madniyatlararo almashinuv vositasi, balki milliy tarjimashunoslik maktabining salohiyati hamda tilshunoslik fanining rivojlanish darajasini belgilovchi bosh mezonlardan biridir. Badiiy tarjima o'zga xalqning ijtimoiy-madaniy tafakkur mahsulini milliy lison qobig'iga ko'chirish orqali ona tilining lisoniy-estetik imkoniyatlarini boyitishga xizmat qiladi. Bu borada qirg'iz milliy olami, o'ziga xos sharqona falsafa va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan buyuk adib Chingiz Aytmatov asarlarining o'zbek tilidagi talqinlari va ularning o'zbek adabiy muhitiga ta'siri alohida fundamental ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, adib o'z asarlarini ham qirg'iz, ham rus tillarida parallel ravishda ijod qilgan bo'lsa-da, o'zbek tilidagi amaldagi tarjimalarning salmoqli qismi aynan rus tilidagi mualliflik matnlari asosida amalga oshirilgan. Ushbu holat tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan o'ta murakkab, ikki bosqichli lisoniy transformatsiyalar tizimini yuzaga keltiradi. Bir tomondan, tarjima jarayonida fleyktiv (rus tili) va agglutinativ (o'zbek tili) til tizimlarining tub strukturaviy-tipologik farqlari o'rtasidagi muqarrar to'qnashuvlar namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, vositachi til (rus tili) qobig'iga o'ralgan sof turkiy/qirg'izona milliy ruhni, etnomadaniy muhitni o'zbek tilida qayta tiklashning o'ziga xos konseptual muammolari yuzaga keladi. Binobarin, ruscha matnda berilgan sintaktik murakkabliklar, passiv konstruksiyalar va lisoniy o'ziga xosliklar o'zbek tilining ichki qonuniyatlariga ko'chirilganda, shunchaki so'zma-so'z muqobil almashtirish usuli o'zini oqlamaydi. Tarjimondan nafaqat ikki til grammatikasini chuqur bilish, balki vositachi til ortidagi qirg'iz dunyoqarashi kodlarini aniq dekodlash va ularni o'zbek o'quvchisi uchun lisoniy-uslubiy va pragmatik jihatdan mutanosib tarzda yetkazib bera olish mahorati talab etiladi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu uslubiy hamda lingvomadaniy to'qnashuvlarni tahlil qilishga qaratilganligi bilan dolzarb xarakterga egadir.